

**Xulosa:** Nonning ushog'i ham non.

Hikoya qahramonlariga ta'rif beriladi.  
Tushirib qoldirilgan unlilar qo'yiladi va maqollar o'qiladi.

N . n ham n . n, ush . g'i ham n . n.  
N . nga h . rmat – elga humr . t.  
N . n qadr . ni . ch bilar,  
Kiy . m q . drini – yal . ng' . ch.

Rasm asosida oilaviy an'analar hadiga og'zaki gaplar tuziladi.

Tez aytish ayttiriladi.

#### **IV. Darsni yakunlash va baholash. (*3daqiqa*)**

- Darsda nimalarni bilib oldingiz?
- Qanday xulosa chiqardingiz?
- Bugun o'rganganlaringizdan qaysilarini kundalik hayotda qo'llaysiz?

**V. Uyga vazifa. (*1 daqiqa*)** “Non-dasturxonimiz ko'rki” mavzusida kichik matn yarating.

#### **4-Mavzu: Ibratli amallar va go'zal an'analar**

##### **Darsning maqsadi:**

- “Hashar – elga yarashar” matni bilan tanishtirish;
- ibratli amallar va go'zal an'analar haqida tushuncha berish;
- bog'lanishli nutqini o'stirish;
- muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish.

**Tayanch so'zlar:** hashar, ibratli amallar, ahillik.

**Didaktik materiallar:** mavzuga mos rasmlar.

##### **Darsning borishi:**

#### **I. Darsning kirish qismi. (*3 daqiqa*)**

Darsni tashkil qilish.

##### **Faollashtiruvchi mashq:**

**“Adashgan so‘zlar”** mashqi.

Berilgan so‘zlardan gap tuzing.

## **EZGU BIZGA AMAL YARASHAR**

### **II. O‘tilganlarni takrorlash. (*10 daqiqa*)**

“Non-dasturxonimiz ko‘rki” mavzusida kichik matn yarating.

### **III. Darsning asosiy qismi. (*27 daqiqa*)**

**Amaliy topshiriq. “O‘rnimni top”** mashqi.

Tartibsiz berilgan harflarni o‘z o‘rniga qo‘yib, so‘z hosil qilish kerak bo‘ladi.

*O‘quvchilar juftlikda harflardan so‘z hosil qilishadi. (Hashar)*

## **ShARHA**

Amaliy topshiriq muhokamasi uchun savollar:

1. Siz qanday so‘z tuzdingiz?
2. Bu so‘zga ta’rif bering.

## **Mavzuni tushuntirish.**

Suhbat o‘tkaziladi.

1. Ibrat deganda nimani tushunasiz?
2. Ibratli amallarga misollar keltiring.
3. Hashar so‘ziga ta’rif bering.
4. “Hashar-elga yarashar” jumlasining mazmunini izohlang.

O‘quvchilarning fikri umumlashtiriladi.

*Hashar – arabcha so‘z bo‘lib, “ko‘pchilik”, “jamoa”, “guruh”, ma’nolarini anglatadi. Ko‘pchilik bo‘lib biror yumushni bajarish, ezgulik va mehr-muruvvatga boy qadriyat hashar deyiladi.*

**Matn bilan ishslash.** “Hashar-elga yarashar” matni o‘quvchilarga zanjir usulida o‘qitiladi. Darslikda berilgan savollarga javob beriladi.

1. Hashar nima?
2. Ayting-chi, hashar nimasi bilan boshqa tadbirdan ajralib turadi?
3. Hashar yo‘li bilan qanday ishlar amalga oshiriladi?
4. Nima uchun hashar mehr-oqibatga, ahillikka undaydi?

O'quvchilarning javoblari to'ldiriladi va tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

Matnda uchragan notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi

**Ibrat** – namuna, o'rnak bo'ladigan ish.

**Hamjihatlik** – ahil.

**Beg'araz** – o'z manfaatini ko'zlamasdan.

**Saxovat** – saxiylik.

Matnning har bir qismi alohida o'qitiladi va sarlavha topiladi. Asar mazmuniga mos reja tuziladi.

**Reja:**

1. Hashar nima?
2. Beg'araz yordam
3. Hashar bugungi kunda
4. Hashar - elga yarashar

Juftlikda ishslash uchun darslikdagi maqol o'qiladi va mazmuni izohlanadi.

**Mashq daftari bilan ishslash.**

Mashq daftarida berilgan topshiriqlar ustida ishlanadi.

Matndan daftarda berilgan harflar bilan boshlanadigan so'zlardan tashkil topgan gap aniqlab yoziladi. (Bu tadbir barchani ahillikka va mehr-oqibatga undashi bilan ajralib turadi.)

Shunday bo'g'in qo'yinki, natijada ikkita so'z hosil bo'lsin.

ha	<b>-shar</b>	bat
ba	<b>-hor</b>	diq
dun	<b>-yo</b>	qa
daf	<b>-tar</b>	vuz
ham	<b>-ma</b>	dad
mak	<b>-tab</b>	rik

**IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)**

- Hashar nima?
- Darsdan qanday xulosaga keldingiz?

Fikrni davom ettiring.

“Men bugun darsda ... bilib oldim.”

**V. Uyga vazifa. (*2 daqiqa*)**

Matnni o‘qing va mazmuni yuzasidan savollar tuzing.